




**XORAZM VILOYATINING
CHAKANA VA ULGURJI SAVDO
TOVAR AYLANMASI**

*Dastlabki ma'lumot
2023- yil yanvar-dekabr*



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi**
Тел. 62-224-65-09

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



2024- yil 1- yanvar holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 6 318 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 92 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 6 226 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan

Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.




Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023- yilning yanvar-dekabr oyida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 13 392,9 mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan 107,4 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **686,4** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **91,0** %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **12 706,5** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **108,5** %), shundan, uyushmagan savdo tovar aylanmasi **2 470,6** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **102,2** %) tashkil etdi.

	Jami, mlrd. so'm	2022- yil yanvar-dekabr oyiga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	13392,9	107,4
Urganch sh.	3750,8	108,7
Xiva sh.	632,2	109,1
Bog'ot	806,4	107,1
Gurlan	1041,1	107,0
Qo'shko'pir	700,3	105,7
Urganch	1573,8	106,7
Hazorasp	1403,6	105,5
Tuproqqal'a	323,6	109,7
Xonqa	865,3	105,7
Xiva	454,6	111,0
Shovot	881,4	105,4
Yangiariq	582,1	110,0
Yangibozor	377,7	107,1


2023- yilning yanvar-dekabr oylarida 2022- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan viloyatning Xiva tumani (**111,0** %), Yangiariq tumani (**110,0** %), Tuproqqal'a tumani (**109,7** %), Xiva shahrida (**109,1** %) chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar-dekabr)



So'nggi 5 yillikda (2019-2023- yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2020- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2020- yilning mos davriga nisbatan 109,7 % ni tashkil qildi.

2023- yil uchun chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati, oylar kesimida (foizda)



2023- yilning yanvar-dekabr oyida o'sish sur'ati **107,4 %** ni tashkil qildi.




Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulush Urganch shahrida **28,0** % bilan **3 750,8** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulush esa Tuproqqal'a tumanida **2,4** % bilan **323,6** mlrd. so'mni tashkil etdi.

2022 - yilning mos davriga nisbatan chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.

Hajmi, mlrd. so 'm





Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2023 - yilning yanvar-dekabr oylarida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **12 706,5** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan 8,5 % ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 94,9 % ni tashkil etdi.

108,9

Qo'shko'pir

109,7

Tuproqqal'a

110,2

Xiva sh.

110,5

Yangiariq

111,4

Urganch sh.

Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2022- yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan 9,0 % ga o'sdi va **686,4** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 5,1 % ulushiga to'g'ri keldi.

119,7

Shovot

124,0

Tuproqqal'a

2,4 m.


Bog'ot

5,6 m.


Xiva



CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)




 Yirik korxonalar


 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Tuproqqal'a (**99,9 %**), Yangiariq (**99,6 %**), Gurlan (**99,5 %**) tumanlari mos ravishda yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **5,1 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Urganch shahri (**12,2 %**), Xiva tumani (**6,1 %**), Xiva shahri (**4,1 %**) hamda Hazorasp tumanida (**3,8 %**) kuzatildi.

5,1 %



94,9 %




 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik



Hududlar kesimida ma'lumot, *ming so'mda*



2023- yilning yanvar-dekabr oylari holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 6 775,0 ming so'mni (2022- yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan 105,5 %) tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda, eng yuqori hajm Urganch shahri (24 757,8 ming so'm), Urganch (7 444,8 ming so'm) va Hazorasp (6 876,9 ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati (2023- yil yanvar-dekabr), foizda



Dehqon bozorlari



Chorva bozorlari


Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

	Jami, mlrd. so'm	2022- yil yanvar- dekabr oyiga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	2470,6	102,2
Urganch sh.	433,1	101,6
Xiva sh.	125,2	114,5
Bog'ot	308,4	93,8
Gurlan	370,9	120,3
Qo'shko'pir	242,4	86,0
Urganch	-	-
Hazorasp	237,8	91,6
Tuproqqal'a	33,9	141,7
Xonqa	162,1	98,4
Xiva	-	-
Shovot	390,6	97,9
Yangiariq	97,9	154,9
Yangibozor	68,1	130,5


* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

**Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi
o'sish sur'atlari
(2023- yil yanvar-dekabr)**



**Hududlar kesimida uyushmagan
savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm
(2023- yil yanvar-dekabr)**














Viloyat bo'yicha 2023-yilning yanvar-dekabr oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 2 470,6 mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan 102,2 % ni tashkil etdi.

Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 1 213,9 mlrd. so'mni (101,4 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 1 256,6 mlrd so'mni tashkil etdi (103,0 %).













2023-yilning yanvar-dekabr oyida respublikaning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 1 213,9 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (523,7 mlrd.so'm) to'g'ri keldi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

<p>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</p> <p>523,7 mlrd. so'm</p>  <p>43,1 %</p>	<p>Non va non mahsulotlari</p> <p>114,3 mlrd. so'm</p>  <p>9,4 %</p>	<p>Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)</p> <p>146,3 mlrd. so'm</p>  <p>12,1 %</p>
<p>Tovuq go'shti</p> <p>77,0 mlrd. so'm</p>  <p>6,3 %</p>	<p>Quritilgan qishloq xojaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)</p> <p>34,5 mlrd. so'm</p>  <p>2,8 %</p>	<p>Tuxum</p> <p>34,4 mlrd. so'm</p>  <p>2,8 %</p>
<p>Ziravorlar</p> <p>21,2 mlrd. so'm</p>  <p>1,7 %</p>	<p>Sut va sut mahsulotlari</p> <p>40,0 mlrd. so'm</p>  <p>3,2 %</p>	<p>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak</p> <p>66,5 mlrd. so'm</p>  <p>5,5 %</p>
<p>Tuzlamalar</p> <p>13,5 mlrd. so'm</p>  <p>1,1 %</p>	<p>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</p> <p>16,9 mlrd. so'm</p>  <p>1,4 %</p>	<p>Nooziq-ovqat tovarlar</p> <p>125,9 mlrd. so'm</p> <p>10,4 %</p>

2023- yilning yanvar-dekabr oyida viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 1 256,6 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 1 134,9 mlrd.so'm, qo'y va echkilar – 114,1 mlrd. so'mni, parrandalar – 7,4 mlrd. so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi

<p>2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar</p> <p>588,1 mlrd. so'm</p>  <p>46,8 %</p>	<p>1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</p> <p>349,7 mlrd. so'm</p>  <p>27,8 %</p>	<p>1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar</p> <p>197,2 mlrd. so'm</p>  <p>15,7 %</p>
<p>Qo'ylar</p> <p>95,6 mlrd. so'm</p>  <p>7,6 %</p>	<p>Echkilar</p> <p>18,5 mlrd. so'm</p>  <p>1,5 %</p>	<p>Kurka, o'rdak, g'oz</p> <p>4,2 mlrd. so'm</p>  <p>0,3 %</p>
<p>Tovuqlar</p> <p>3,2 mlrd. so'm</p>  <p>0,3 %</p>	<p>Quyonglar</p> <p>0,2 mlrd. so'm</p>  <p>0,2 %</p>	<p>Qushlar</p> <p>0,02 mlrd. so'm</p>  <p>0,01 %</p>
<p>Otlar</p> <p>0,2 mlrd. so'm</p>  <p>0,2%</p>		

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2024- yil 1- yanvar holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 1 424 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 2 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 422 tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar- dekabr oyiga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	393,0	112,7
Urganch sh.	188,8	113,8
Xiva sh.	21,5	121,4
Bog'ot	12,4	109,2
Gurlan	9,8	110,5
Qo'shko'pir	5,2	110,8
Urganch	68,7	112,1
Hazorasp	18,2	113,2
Tuproqqal'a	8,3	103,7
Xonqa	8,2	111,6
Xiva	9,6	110,4
Shovot	24,2	106,4
Yangiariq	6,0	112,3
Yangibozor	12,3	111,2

2023- yilning yanvar-dekabr oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 393,0 mlrd. so'mga yetdi. 2022- yilning mos davriga nisbatan 12,7 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 97,2 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.




Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Xorazm viloyati	6 493,0	100,0
Urganch sh.	6 088,6	93,8
Xiva sh.	28,7	0,4
Bog'ot	47,3	0,7
Gurlan	35,5	0,5
Qo'shko'pir	13,4	0,2
Urganch	41,8	0,6
Hazorasp	103,5	1,6
Tuproqqal'a	17,7	0,3
Xonqa	81,5	1,3
Xiva	4,3	0,1
Shovot	6,7	0,1
Yangiariq	18,9	0,3
Yangibozor	5,1	0,1


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda, eng yuqori hajm Urganch shahri (**6 088,6** mlrd. so'm), Hazorasp (**103,5** mlrd. so'm) va Xonqa (**81,0** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd. so‘m)




2023- yilning yanvar-dekabr oyida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta‘mirlash va texnik xizmat ko‘rsatishdan tashqari*) 6 493,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **2,1** barobarga ko‘paydi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 3 257,4 mlrd. so‘m (o‘sinh sur‘ati – 185,2 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – 3 235,6 mlrd. so‘mni (o‘sinh sur‘ati – 2,3 m) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os‘ish sur‘ati, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar qiymati.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2023- yilning yanvar-dekabr oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi **7186,2** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 7,8 % ga o‘ydi.

Savdo aylanmasi va ulushi

10,8 %

777,2 mlrd. so‘m

Yirik korxonalar

89,2 %

6 409,0 mlrd. so‘m

Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 6 409,0 mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 109,9 % ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 89,2 % ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O'SISH SUR'ATI

2024- yil 1- yanvar holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 2 327 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 39 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 2 288 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega eng yirik korxonalar Xiva tumani (2,2 m.) va Shovot (2,1 m.) tumanlarida kuzatildi.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar- dekabr oyiga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	7186,2	107,8
Urganch sh.	3836,1	109,4
Xiva sh.	246,4	106,2
Bog'ot	78,9	70,6
Gurlan	295,9	91,4
Qo'shko'pir	91,3	108,4
Urganch	1193,2	113,9
Hazorasp	109,0	106,9
Tuproqqal'a	113,6	106,4
Xonqa	258,0	93,7
Xiva	490,9	113,6
Shovot	124,6	106,9
Yangiariq	251,9	105,3
Yangibozor	96,3	106,8